

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi:  
BD - 5111900 - 3.05  
2017-yil «16 08»



*Wazir*  
08

**LOGOPEDIYA**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111900 – Defektologiya (Logopediya)

**Toshkent - 201**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201\_yil  
\_\_\_\_\_ \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - sonli buyrug'ining \_\_\_\_\_ - ilovasi bilan fan  
dastur ro'yhati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 201\_yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

M.Y.Ayupova - Nizomiy nomidagi TDPU «Logopediya» kafedrasini professori, pedagogika fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:**

N.X.Raxmankulova - A.Avloniy nomidagi XTXMOQMT institutining O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, pedagogika fanlari doktori, dotsent  
D.T. Ismailova - 250-maxsus “ko‘p ixtisosli” MTT mudiri

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘quv – uslubiy kengashda tavsiya qilingan (201\_yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ - sonli bayonnomasi

**Kirish**

Ushbu dastur logopediya fanining asosiy maqsadi va vazifalari, bolalar nutqidagi kamchiliklar tipologiyasi, nutq buzilishlarini mexanizmi va sabablari,

nutqdagi kamchiliklarini aniqlash, turli ko‘rinishdagi nutq kamchiliklarini bartaraf etish yo‘llari metodlari va maxsus muassasalarda logopedik ishlarni tashkil etish masalalarini qamrab oladi.

### **Fanining maqsadi va vazifalari**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda nutq kamchiligidagi ega bo‘lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari, nutq kamchiliklarining xilma-xilligi, nutq kamchiliklarini tekshirish, nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarning nutq kamchiliklarini turlariga qarab bartaraf etish metodikalarini to‘g‘ri tanlay olish boyicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga nutq buzilishlarni keng tarqalganligi, alomatlari, darajasini aniqlash, nutq buzilishlarini pedagogik diagnostikasi, metodlari, bartaraf etish metodikalarini o‘rgatishdan iborat.

### **Fan boyicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qoyiladigan talablar**

Logopediya o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr;

- logopediya fani umumiyligi pedagogika fanining tarkibiy qismi ekanligi; bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari; nutq buzilishlarining sabablari; nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlari; nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoyillari; logopedik ta’sir tamoyillari va metodlari; nutq kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalar uchun maxsus muassasalar tizimi; nutq kamchiligidagi ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish; nutq buzilishlarining tasnifi va nutq buzilishlari bo‘yicha logopedik terminologiya; nutq kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirish va ulardagi nutq kamchiliklarini korreksiyalash yo‘llari va usullarini; nutq kamchiligidagi ega bo‘lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari; nutq kamchiliklarining xilma-xilligi; korreksion pedagogik jarayonni nazariy-amaliy taxlil etishni ***bilishi kerak;***

- nutq kamchiliklarini tekshirish; nutq kamchiliklari turlariga qarab ularni bartaraf etish metodikalarini to‘g‘ri tanlay olish ***ko‘nikmalariga;***

- nutq kamchiligidagi ega bo‘lgan bolalar nuqsonlarini tasniflash; ota-onalar bilan ishslash, bolalarning nutq nuqsonlarini bartaraf etish uchun didaktik materiallarni tanlash; bolalarda kuzatiladigan nutq kamchitliklarini korreksiyalash ***malakalariga ega bo‘lishi kerak;***

### **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

Logopediya fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish o‘quv rejada rejalashtirilgan umumiyligi pedagogika, umumiyligi psixologiya,

defektologiyaning klinik asoslari, maxsus psixologiya, maxsus pedagogika fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

### **Fanning ta`limdagi o'rni**

Logopediya fani nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar muassasalarida korreksion ishlarning mazmuni, vositasi, metodlari va fanning rivojlanishi, nutq kamchiligiga ega bolalar bilan logopedik ish, har xil nutq buzilishlarini bartaraf etish metodikalarini qamrab oladi.

Pedagogika amaliyot jarayonida olingan nazariy bilimlarini ilk bor hayotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish uchun shart - sharoit hosil qiladi. Shuning uchun logopediya fani ta`lim jarayonidagi asosiy mutaxassislik fani hisoblanadi, defektolog kadrlarni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga egadir.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarni logopediya fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur fanni o'qitish jarayonida zamonaviy metodlar, pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llanilishi nazarda tutilgan.

- logopediya fani boyicha ma`ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektoron texnologiyalar;

- nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, shakllari, usullari, tamoyillari boyicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, BBB bunday fikrlash pedagogik texnologiyalardan;

- nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar maxsus korreksion mashg'ulotlar tashkil etish usullarini aniqlash, tahlil etish boyicha amaliy mashg'ulotlarda kichik guruh munosabatlari, PMK, FSMU, elkan 3 bosqichli intervyyu, gamburger texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi. Ma`ruza hamda amaliy mashg'ulotlarga mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan qo'llaniladi.

### **Asosiy qism**

#### **Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni**

#### **Logopediya fanining nazariy va metodologik asoslari**

#### **Logopediya fanining umumiy masalalari**

Logopediya fanining maqsadi, vazifalari. Logopediya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Logopedianing metodologik asoslari. Nutq buzilishlari etiologiyasi. Nutqning anatomic-fiziologik mexanizmlari. Nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoillari. Nutq buzilishlarini tasniflash. Logopedik ta'sir tamoillari va metodlari. Bolalar nutqining rivojlanish hususiyatlari.

### **Nutqdagi kamchiliklarni tekshirish va aniqlash**

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar nutqidagi kamchiliklarni aniqlashning asosiy tomonlari va xususiyatlari. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar nutqini sistemali va har tomonlama tekshirish. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar

nutqini o'rganish metodlari va usullari. Nutq kamchiliklarini aniqlash va tasniflashda lozim bo'ladigan anamnestik ma'lumotlar va tibbiy pedagogik hujjatlarni o'rganishning ahamiyati. Maktabgacha va maktab yoshidagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarni har tomonlama dinamik o'rganish tizimida nutq kamchiliklarini aniqlash va o'rganish.

### **Logopedik yordam tizimi**

Logopediyada korreksion-tarbiyaviy ta'sirning vazifalari. Maktabgacha va maktab yoshidagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutq kamchiliklarini bartaraf etishning asosiy jihatlari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida logopedik yordamni tashkil etish. Maktab yoshidagi bolalarga logopedik yordamni tashkil etish. Sog'liqni saqlash tizimida logopedik yordam.

### **Nutq faoliyatining xususiy patologiyasi**

**Ovoz buzilishlari.** Ovoz apparatining akustikasi va ovozning akustik tuzilishi. Ovoz huruji. Rегистратор. Ovoz paydo bo'lishi nazariyalari. Bolalar ovozining rivojlanishi. Ovoz buzilishlarining etiologiyasi. Ovoz buzilishlarini kelib chiqish sabablari va mexanizmi. Ovozdagi o'zgarishlar (buzilishlar) ning sabablari va turlari. Ovoz buzilishining tasnifi. Organik ovoz buzilishlari, (xiqildoq harakatining buzilishi, surunkali laringit, kichik xirurgik operatsiyadan keyingi ahvol). Funktsional ovoz buzilishlari (parezlar, fonosteniya, funktsional afoniya, patologik mutatsiya).

Ovoz buzilishlarini bartaraf etish yo'llari. Ovoz buzilishlari profilaktikasi va ovoz gigienasi.

### **Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar**

**Dislaliya.** O'zbek tili tovushlari tasnifi. Bolalarda nutq tovushlarini ontogenezda shakllanishi va rivojlanishi. Dislaliya haqida tushuncha. Dislaliyanı o'rganish tarihi. Dislaliya sababalari .Funktsional va mexanik, monomorf va polimorf, oddiy va murakkab dislaliya. Dislaliya turlari (sigmatizm, rotatsizm, lambdatsizm, kappatsizm, yumshatish nuqsonlari). Tovush talaffuzi va nutq eshituv idrokinining buzilishi (fonetik, fonematik va fonektik-fonematik). Dislaliyanı bartaraf etishda logopedik ta'sir metodikasi.Tovush talaffuzi buzilishlarini bartaraf etish usullari. Logopedik ish davrlari: tayyorlov, tovushni nutqga qoyish, tovushni nutqda mustahkamlash, tovushlarni ajratish (differentsiatsiyalash), tovushni nutq faoliyatiga kiritish. Har bir davrning vazifasi va ish usullari. Turli xil sigmatizmni bartaraf etish. Rotatsizm va lambdatsizmni bartaraf etish. Til orqa (k, g, x) va chuqur til orqa (q, g') tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish.

**Rinolaliya.** Rinolaliyanı o'rganishning tarixi. Buzilish mexanizmi, sabablari va uni aniqlash. Logopedik yordam ko'rsatishni rivojlantirish. Rinolaliya shakllari. Ochiq rinolaliya. Yopiq rinolaliya. Aralash rinolaliya. Tanglaydag'i tug'ma yoriqlarning bolaning jismoniy, ruhiy va nutqiy rivojlanishiga ta'siri. Rinolaliyanı nutqning o'ziga hos xususiyatlari. Rinolalik bolalarga kompleks, ya'ni tibbiy-pedagogik ta'sir logopedik ishning bir qismi sifatida. Ochiq

rinolaliyada logopedik ishning asosiy tamoyillari. Operatsiyagacha va operatsiyadan keyin olib boriladigan logopedik ish metodikasi. Rinolaliyada tovushlarni nutqqa qoyishning o‘ziga xos hususiyatlari. Rinolaliyada ovoz buzilishi va uni korrektsiyalash.

**Dizartriya.** Dizartriya haqida tushuncha. Dizartriya nutq buzilishini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Dizartrianing sabablari. Dizartriya – bolalar serebral falaji kasalligining belgisi sifatida. Dizartriya tasnifi. Asosiy shakllari va ularning belgilari. Dizartrik bolalarning salomatligi, psixik va nutq taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari. Artikulyatsiya (talaffuzining aniqligi), umumiy va mayda motorikaning (nutqga dahldor va dahldor bo‘lmagan) buzilishi. Dizartriyani bartaraf etishda korreksion-pedagogik ishlar tizimi. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarning vazifalari, korreksion ish metodlari va usullari. Dizartriya nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish. Tovushlar talaffuzini korrektsiyalash.

### Sistemali nutq buzilishi

**Alaliya** – nutqning sistemali (surunkali) rivojlanmaganligi. Alaliyani o‘rganish tarixi. Alaliya sabablari va mexanizmi. Alaliya shakllari. Alaliyani tasniflash.

**Motor alaliya.** Alaliyada nutqning leksik-grammatik va fonetik tomondan buzilishi. Alalik bolalarning nutqni o‘zlashtirishidagi qiyinchiliklari. Motor alalik bolalar nutqining leksik-grammatik va fonetik-fonematik tavsifi. Motor alaliyaning nutqiy bo‘lmagan belgilari. Motor alaliyada korreksion ta’sir tizimi.

**Sensor alaliya.** Sensor alaliyaning asosiy belgilari. Sensor alaliyalı psixologik-pedagogik va nutqiy hususiyatlari. Sensor alaliyaning zaif eshitish va aqli zaiflik bilan qiyosiy tavsifi. Sensor alaliyada korreksion ta’sir tizimi.

**Afaziya** - uning sabablari va mexanizmi. Afaziyani o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Afaziya shakllari va ularning nomoyon bo‘lish sabablari. Akustik-gnostik sensor afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o‘qish va yozuvdagagi buzilishlar. Akustik-mnestik afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o‘qish va yozuvdagagi buzilishlar. Semantik afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, og‘zaki va yozma nutq buzilishi. Afferent-motor afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o‘qish va yozuvdagagi buzilishlar. Efferent-motor afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o‘qish va yozuvdagagi buzilishlar. Dinamik afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o‘qish va yozuvdagagi buzilishlar. Bolalarda afaziyaning kechishi xususiyatlari. Afaziyada korreksion-tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishlari. Reabilitatsion ta`limning tamoyil va metodlari. Afaziyaning barcha shakllarini bartaraf etishda korreksion-logopedik ish tizimi va uning o‘ziga xos hususiyatlari.

### Yozma nutq kamchiliklari va ularni bartaraf etish

Yozma nutqdagi kamchiliklarini o‘rganish tarixi. O‘qishning psixologik akti. Me’yorda o‘qishni o‘zlashtirish jarayoni. Tovush-harf jarayonini o‘zlashtirish

jarayoni. Bo‘g‘inlab o‘qish bosqichi. So‘zlarni butun o‘qish. Sintetik o‘qish bosqichi. Disleksiya. Disleksiya tasnifi. Disgrafiya. Yozuv jarayonining psixik-fiziologik qurilishi. Yozuv jarayonini operatsiyalari. Disgrafiya tasniflari. O‘qish va yozishdagi kamchiliklari bo‘lgan bolalarni tekshirish. Yozma nutqdagi kamchiliklarning oldini olish. Yozma nutq kamchiliklarini bartaraf etishda olib boriladigan logopedik ishlar metodikasi.

### **Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish boyicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlar nazariy bilimlarni amaliyatda kuzatish, nazariyaning hayot bilan qay darajada muvofiqligini sinash va bilish imkoniyatini yaratadi.

Logopediyadan rejalashtirilgan amaliy mashg‘ulotlar butun kurs mazmunini qamrab olgan. Logopediya fanidan amaliy mashg‘ulotlarning maqsad va vazifalari.

Logopediya fanidan o‘tkaziladigan, amaliy mashg‘ulotlarning maqsadi bolalardagi nutq kamchiliklar sabablarini, mexanizmlarini ochib berish, talabalarga nutqdagi kamchiliklar tipologiyasi to‘g‘risida aniq tasavvur berish hamda maxsus muassasalarda logopedik mashg‘ulotlar uchun talabalarga etarlicha metodik tayyorgarlik berish.

Amaliy mashg‘ulotlarni vazifalari quyidagilardan iborat:

Logopediya fanida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar o‘quv rejada ajratilgan soatlar xajmida, shuningdek dasturda ko‘rsatilgan mavzular boyicha o‘tkaziladi.

Logopediya fani amaliy mashg‘ulotlar mavjud darslik va dastur va darsliklarga, metodik adabiyotlarda berilgan ma`lumotlarga, dars jarayoniga talabalarni ijodiy munosabatini tarbiyalaydi. Ularda kasbiy ko‘nikma va malakalarini hosil qiladi.

Logopediya fanida amaliy mashg‘ulotlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ta`lim-tarbiya jarayoni, nutq kamchiligi bo‘lgan bolalar nutqidagi kamchiliklarini o‘rganish logopediya fanidan olgan nazariy bilimlarini amaliyatga ttabiq etish jarayonida mustaxkamlash, chuqurlashtirish talabida kasbiy malakalarini shakllantirish;

- talabalarning metodik tayyorgarligini oshirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- bo‘lajak logopedda metodik faoliyat motivlarini shakllantirish va logopediya faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish;

- talabalarni maxsus ta`lim buyicha maxsus muassasalar logopedining ish faoliyatini kuzatish, ilg‘or tajribalarini o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatish;

- korreksion-tarbiyaviy ish jarayonini tahlil qilish va baholash.

Amaliy mashg‘ulot talabalarning pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirishga, tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Amaliy mashg‘ulotlar maxsus muassasalarda va universitet auditoriyalarda o‘tkaziladi. Auditoriyalarda o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda talabalar logopedik mashg‘ulotlar uchun mashg‘ulotlar rejasini tuzish, uni tahlil qilish

malakalariga ega bo‘ladilar. Talabalar reja-matn asosida tovushlarni nutqqa qoyish, mustahkamlash, differentsiatsiya qilish boyicha logopedik mashg‘ulotlarni o‘tadilar, talabalar tomonidan o‘tkazilgan har bir mashg‘ulot o‘qituvchi va talabalar tomonidan tahlil etiladi. Har bir amaliy mashg‘ulotning rejasi bilan talabalar oldindan tanishtiriladi. Amaliy mashg‘ulot yuzasidan topshiriqlar beriladi. Topshiriqlarni bajarishda foydalanish uchun adabiyotlar ko‘rsatiladi. Muayyan tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalar bilan amaliy mashg‘ulotlari o‘tkaziladi.

### **Amaliy mashg‘ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari**

1. Nutqning rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillarning ahamiyati. Bolalarda nutqi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.

2. Nutq kamchiliklarini aniqlash. Bolalar nutqini har tomonlama tekshirish. Tekshirish uchun didaktik materiallar tayyorlash.

3. Ovoz buzilishlari. Organik va funksional ovoz buzilishlari. Ovoz buzilishlarini tekshirish metodlari. Bolalar va o‘smirlarda ovoz buzilishlari va uni bartaraf etish yo‘llari.

4. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar. Dislaliya. Funktsional va mexanik dislaliya. Sabablari va belgilari. Dislaliyani bartaraf etishda korrekion-logopedik ishlar tizimi. Tovush talaffuzi va nutq eshituv idrokidagi kamchiliklarni bartaraf etish. Tovushlarni nutqga qoyish, mustahkamlash. Turli maxsus muassassalarda dislaliyani bartaraf etishda olib boriladigan logopedik ishlarini tashkil qilish. Bolaning yoshi, eshitishi, intellektining axvoli, nutq buzilishlarining xarkateridan kelib chiqqan holda ishlarini defferntsiyalash. Maxsus muassassalarda logopedik ishni tashkil qilish: bolalarni mashg‘ulotga tanlash printsiplari, individual va frontal mashg‘ulotlarini tashkil etishning rejash, mashg‘ulotlar uchun zarur didatik materiallar tayyorlash. Tovushlar talaffuzida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini mashg‘ulotlarda kuzatish. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari va maxsus maktablarda tovush talaffuzi buzilishi bo‘lgan bolalar nutqini mashg‘ulotlarda va oyin faoliyatida kuzatish va tahlil etish. Nutq bog‘chasi tuzilishi va ish faoliyati bilan tanishish. Nutq bog‘chasi barcha yosh guruhlari va undagi logoped ishi bilan tanishish. Mashg‘ulotlarda bolalar nutqini kuzatish.

Nutq bog‘chasi bolalar nutqini tekshirish boyicha hujjatlar va didaktik materiallar bilan tanishish. Tovushlar talaffuzi kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalar nutqini mashg‘ulotlarda kuzatish va tahlil etish.

**Rinolaliya.** Sabablari, mexanizmi, belgilari. Rinolaliya shakllari va ularning namoyon bo‘lishi (ochiq, yopiq, aralash rinolaliya). Rinolalik bolalar nutqining talaffuz tomoni buzilishi. Rinolalik bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish. Individual va guruh mashg‘ulotlar. Rinolaliyani bartaraf etishda logopedik ishlar. Rinolalik bolalarning tibbiy pedagogik xujjatlarini o‘rganish va tahlil qilish. Tovushlar talaffuzi kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalar nutqini mashg‘ulotlarda kuzatish va tahlil etish.

**Dizartriya.** Sabablari, mexanizmi, belgilari. Dizartriya shakllari va ularning nomoyon bo‘lishi. Dizartryada nutqning talaffuz tomoni buzilishi. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish. Individual

va guruhli mashg‘ulotlar. Dizartriyani bartaraf etishda logopedik ishlar. Dizartrik bolalarining tibbiy pedagogik xujjatlarini o‘rganish va tahlil qilish. Tovushlar talaffuzi kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalar nutqini mashg‘ulotlarda kuzatish va tahlil etish.

**Sistemali nutq buzilishi.** Alaliya sabablari va mexanizmi. Alaliya shakllari. Alaliya nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari. Nutq rivojlanmaganligini turli darajalarida logopedik ishning o‘ziga xos xususiyatlari. Motor alaliyada logopedik ishning mazmuni va uning takshil qilish. Unda nutqiy va nutqga dahldor bo‘lmagan kamchiliklar. Motor alaliyani bartaraf etishda logopedik-korreksion ish. Sensor alaliyada tashqi nutqini tushunish va uni idrok etish xususiyatlari. Sensor alaliyani bartaraf etishda korreksion-logopedik ish. Maxsus muassasalarda alalik bolalar nutqini, logopedik mashg‘ulotlarni kuzatish va tahlil etish. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar guruhidagi bolalar nutqini mashg‘ulotlarda kuzatish va tahlil etish. Nutq bog‘chasida bolalarning tibbiy-pedagogik hujjatlari bilan tanishish.

**Afaziya.** Afaziya sabablari va mexanizmi. Afaziya shakllari. Afaziyanı bartaraf etishda korreksion tarbiya ishlarini asosiy yo‘nalishlari. Reabilitatsion ta`limning tamoyil va metodlari. Noverbal kommunikatsiyani tiklash metodlari. Verbal kommunikatsiyani tiklashda noverbal metodlardan faydalananish. Afaziyanı bartaraf etishda korreksion-pedagogik ish. Fonematik eshtuvni tiklash. Nutqning leksik tarkibini tiklash va ekspressiv agrammatizmni tugatish. O‘qish, yozish va yozma nutqni tiklash.

**Yozma nutq kamchiliklari.** O‘qish va yozishdagi kamchiliklar. Yozma nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish mazmuni. Mashg‘ulotlarni tashkil etish, rejalashtirish. Yozuvda logopedik xatolarning o‘ziga xos xususiyatlari. Maxsus muassasalarda logoped mashg‘ulotlarini kuzatish va tahlil etish.

### Kurs ishi bajarish boyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Kurs ishining maqsadi talabalarni mustaqil ishslash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo‘llashda amaliy ko‘nikma hosil qilish, bevosita ishlab chiqarishdagi real sharoitlarga mos texnik echimlar qabul qilish va zamonaviy texnik va texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishdir. Kurs ishi talaba faoliyatining muhim va murakkab shakllaridan biri bo‘lib, korreksion ishlar metodikasi (nutq kamchiliklarini bartaraf etish metodikasi, talaffuz malakalarini shakllantirish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi) kursiga oid bilimlar sistemasini mustaqil o‘zlashtirishni ta`minlovchi samarador ish turlaridan hisoblanadi. Kurs ishi yordamida talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakalarini, shuningdek, pedagogik tayyorgarligi, ilmi-metodik fikrlashi, amalda ko‘rgan va bilganlarini umumlashtirish ko‘nikmalarini sinab ko‘riladi.

Kurs ishini bajarish jarayonida talaba:

1. Tanlangan kurs ishi mavzusi bilan bog‘liq nazariy bilimlarini mustaqil ravishda puxta o‘zlashtirib oladi.

2. Tilshunoslikka, psixologiya, pedagogikaga oid, xususan, metodikaga oid adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy tahlil qiladi va ularga munosabat bildiradi, adabiyot royxatini tuzishga o‘rganadi.
3. O‘zining shaxsiy pedagogik tajribalariga asoslanadi. Ilg‘or o‘qituvchilar tajribilarini o‘rganadi, ularni tajriba-sinovdan o‘tkazadi.
4. Mavzuni yoritishga, reja tuzishga, kichik tajriba o‘tkazishga, zarur didaktik materiallar va ko‘rgazmali qurollar tanlash va tayyorlashga, tajriba natijalarini sistemaga solishga va shu asosda kerakli xulosalar chiqarishga o‘rganadi.

**Logopediya fanidan kurs ishining tahminiy mavzulari:**

1. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarga umumiy tasnif va ularning tavsifi.
2. Bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ularning bartaraf etish metodlari.
3. Sigmatizm va uni bartaraf etish metodlari.
4. R va L tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish metodlari.
5. Til orqa (k, g, x, y) tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish metodlari.
6. Chuqur til orqa (q, g‘) tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari.
7. Jaranglatish va jarangsizlantirish defektlari va ularni bartaraf etish metodlari.
8. Fonetik-fonematik nutq buzilishi va uni bartaraf etish metodlari.
9. Tug‘ma yoriqlikni bolaning jismoniy, ruhiy va nutqiy rivojlanishiga ta` siri.
10. Rinolaliyani bartaraf etishda operatsiyagacha va operatsiyadan keyingi ishlar.
11. Rinolaliyani bartaraf etishda logopedik ritmika va davolov mashqlarini ahamiyati.
12. Ochiq rinolalik bolalarni o‘qitish va tarbiyalash yo‘llari.
13. Ovoz buzilishlari va uni bartaraf etish.
14. Ovoz buzilishlarini bartaraf etishda L.Almazova metodikasi.
15. Ovoz buzilishlarini bartaraf etishda S.L.Taptapova metodikasi.
16. Dizartriya va uni bartaraf etish.
17. Dizartriya bolalar miya falajlanish kasalligini simtopi sifatida.
18. Dizartrik bolalar nutqining o‘ziga xos xususiyatlari.
19. Dizartrik bolalar umumiy va mayda qo‘l motorikasining o‘ziga xos xususiyatlari.
20. Alaliya va uning barcha turlarida nutqni shakllantirish metodlari.
21. Alaliya nutqning to‘la rivojlanmaganligini shakli sifatida.
22. Alalik bolalar nutqining o‘ziga xos xususiyatlari.
23. Alalik bolalar motorikasining o‘ziga xos xususiyatlari.
24. Alalik bolalar fonematik idrokining o‘ziga xos xususiyatlari.
25. Afaziya va uning turli shakllarida nutqni tiklash metodlari.
26. Afaziyan o‘rganish tarixi.
27. Afaziyan bartaraf etishda logopedik ish tizimi.
28. Yozma nutq buzilishlari va uning sabablari.
29. O‘qishdagি kamchiliklar va uni bartaraf etish.
30. Yozuvdagи kamchiliklar va uni bartaraf etish.

## **Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ta’limning asosiy maqsadi – o‘qituvchining rahbarligi va nazorat ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talaba mustaqil ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat.

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- kerakli ma`lumotlarni izlab topish qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalarni va manzillaridan samarali foydalanish;
- an`anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me`yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- Internet tarmog‘idan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqning ratsional echimini belgilash;
- ma`lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- ishlab chiqish yoki g‘oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Mustaqil ta`lim talabalarning, nazariy bilimlarini yanada boyitish, darsdan tashqari holatda mustaqil bilim ko‘nikmalarini egallashlari uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, kadrlar tayyorlashning hozirgi sifat bosqichida mustaqil ta`limga alohida e`tibor qaratilib, o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida muayyan soatlar ajratilgan. Mustaqil ta`limda ko‘zda tutilgan asosiy maqsad talabalarni yangicha fikrlash va mushohada qilishga o‘rgatish, nazariy va amaliy bilimlarini mukammallashtirish uchun to‘liq, imkoniyatlar yaratishga qaratilgan, o‘qituvchi dars jarayonida talabalarning har biriga fanga doir zamonaviy mavzularni mustaqil ishlashlari uchun topshiradi. Talabalar o‘zlariga biriktirilgan mavzularni referat, lektsiya shaklida tayyorlab, seminar-amaliyat darslarida lektsiya qilib, keng doirada muhokama qilishadi. Talabalar ba`zi bir mavzular boyicha adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilib, dars jarayonida o‘rganib chiqadilar. Mustaqil ta`limning qisqacha mazmuni berilgandan so‘ng, namunaviy mavzulari beriladi.

Mustaqil ta`limning namunaviy mavzulari talabalar mustaqil o‘rganadigan lektsiya va amaliy mashg‘ulotlardan beriladi. Mustaqil ta`limning namunaviy mavzulari talabalarning fan boyicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga, mavzularni tushunish qobiliyatini maksimal darajada rivojlantirishga, umumiy dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Talaba mustaqil ta’limni tashkil etishda muayyan fan (kurs) ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- berilgan mavzu boyicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko‘rish;
- malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;

- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish (case-study);
- maket, model, badiiy asar, musiqa va namunalar yaratish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma`ruza tezislarini tayyorlash;
- o'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

Logopediya fani boyicha tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning tahminiy mavzulari:

1. Nutq faoliyatining norma va patologiyasi.
2. Nutq kamchiliklarining oldini olish va bartaraf etishni o'rganish uchun logopediya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
3. Nutq faoliyatida anatomo-fiziologik va psixolingvistik aspektlari.
4. Bola nutqini rivojlanishida biologik va sotsial faktorlarning roli.
5. Adabiyotlardagi ma'lumotlardan foydalangan holda, norma va atipik sharoitlarda nutq rivojlanishini taqqoslang.
6. Ovoz hosil bo'lishi haqidagi turli xil nazariy qarashlar.
7. Ovoz buzilishlarini bartaraf etishda S.L.Taptapova metodikasini adabiyotlardan foydalangan holda konspekt qiling.
8. Ovoz buzilishlarini bartaraf etishda E.S.Almazova metodikasini adabiyotlardan foydalangan holda konspekt qiling.
9. Dislaliyani o'rganish tarixi.
10. Umumiy artikulyatsion gimnastika kompleksi va tovushlarni postanovkaga tayyorlash uchun qo'llaniladigan maxsus mashqlar ish daftaringizga yozing.
11. Tovushlar talaffuzi va fonetik idrokni o'zaro bog'liqligi.
12. Rinolaliyani o'rganish tarixidan qisqacha ma'lumotlar va rinolalik bolalarga ko'rsatiladigan logopedik yordam.
13. Rinolaliyada kompleks ta'sir etish boyicha ishlanmalardan konspekt qiling.
14. Rinolalik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishni rejalashtiring.
15. Tug'ma yoriqlikning bolaning jismoniy, ruhiy va nutqiy rivojlanishiga ta'siri.
16. Dizartriyani nutq kamchiliginu ilmiy-nazariy tomonidan o'rganishi
17. Dizartriya bolalar tserebral paralichining simptomi ekanligini.
18. Alaliyani o'ragnishning anatomo-fiziologik aspektlari.
19. Motor alaliyada defekt strukturasi. Motor alaliyada nutqni leksiko-grammatik va fonetiko-fonematik tomondan buzilishi.
20. Sensor alaliyada nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari.
21. Afaziologiya tarixini o'rganish.
22. Motor alaliyada olib boriladigan logopedik ish sistemasini yoritib bering (asosiy printsipler, usullar, yo'nalishlar va davrlar boyicha).
23. Bolalarda akustik diqqat va uquvni rivojlantirish va tekshirish uchun ovozli predmetlar naborini tanlang.
24. Yozma nutq buzilishlarini tarixini o'rganish.

### **Fan dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti**

## **Didaktik vositalar**

### **Didaktik vositalar ro‘yxati:**

- **jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi, LCD-monitor.
- **video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
- **kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera.

### **Foydalaniladigan адабиётлар royxati Asosiy адабиётлар**

1. Ayupova M.Y. Logopediya. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2011
2. Логопедия. (под ред. А.С. Волковой) - М.: Владос. 2003
3. Muminova L., Ayupova M. Logopediya. - T.: O‘qituvchi 1993

### **Qo‘sishimcha adabiyotlar**

1. Shomaxmudova R.SH., Mo‘minova L.R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. - T.: O‘qituvchi, 1993
2. Хрестоматия по логопедии. - М.: Владос, 1997/ 1 том.
3. Хрестоматия по логопедии. - М.: Владос, 1997/ 2 том.

### **Elektron ta`lim resurslari.**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.lex.uz;](http://www.lex.uz)
5. [www.bilim.uz;](http://www.bilim.uz)
6. [www.gov.uz;](http://www.gov.uz)



